

SAMARQAND DOSTONCHILIK MAKTABINING TARIXIY SHAKILLANISH
BOSQICHLARI

Annakulova Dildora Baymuratovna

Guliston davlat universiteti “An’anaviy xonandalik va xalq cholg’ulari” kafedrası o’qituvchisi E-mail: dildoraannakulova36@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada doston ijrochiligi va uning mazmuni, tushunchasi, doston ijrochiligining kashfiyotchilari, ularning kasby-ijrochilik an’analari hamda undan foydalanishning nazariy asoslari tahlili keltirib o’tilgan. O’zbek xalqining an’anadagi og’zaki poetik ijodining asosiy yo’nalishlaridan bii bu shubhasiz doston ijrochiligi ijodiyoti hisoblanadi. An’anaviy ravishda doston ijrochiligi tabiati va xususiyatlariga oid savollar san’atshunoslik, folklorshunoslik, etnografiya, pedagogika, musiqa pedagogikasi fanlari doirasida o’rganiladi. Biroq, ushbu tadqiqotda ularning ta’kidlari o’zining maxsus xususiyatlari sababli, musiqa pedagogikasi ta’limida doston ijrochiligini o’rganish uchun pedagogik shart-sharoitlarni, pedagogik zaruriyatni, mexanizmalarni, kasbiy metodik asoslarni aniqlashga qaratilgan.

Pedagogika sohasida doston ijrochiligi an’analarini o’rganish bo’yicha dastlabki urinishlar qadim zamonlarda amalga oshirilgan bo’lsa-da, biroq, bugungi kunga kelib, uning ta’sir kuchi yanada ijtimoiy hayotda saqlanib qolmoqda.

Abstract: This article presents an analysis of the performance of the epic and its content, concept, the inventors of the performance of the epic, their professional performing traditions, and the theoretical foundations of its use. One of the main directions of the traditional oral poetic creativity of the Uzbek people is undoubtedly the creation of doston performance. Traditionally, questions about the nature and features of doston performance are studied within the framework of the disciplines of art history, folklore, ethnography, pedagogy, and music pedagogy. However, in this study, due to their special features, their emphasis is on identifying pedagogical conditions, pedagogical necessity, mechanisms, and professional methodological foundations for studying doston performance in music pedagogy education.

Although the first attempts to study the traditions of doston performance in the field of pedagogy were made in ancient times, to this day its influence continues to be preserved in social life.

Keywords: epic, terma, bakhshi, performance, professional, preparation, custom, tradition, value, ceremony, music, verse, pedagogy.

Аннотация: В статье представлен анализ исполнения эпоса, его содержания, концепции, изобретателей исполнения эпоса, их профессиональных исполнительских традиций, а также теоретических основ его использования. Одним из основных направлений традиционного устного поэтического творчества узбекского народа, несомненно, является исполнение эпических поэм. Традиционно вопросы, касающиеся сущности и особенностей эпического исполнительства, изучаются в рамках таких дисциплин, как история искусств, фольклористика, этнография, педагогика и музыкальная педагогика. Однако в данном исследовании акцент, в силу его специфики, направлен на выявление

педагогических условий, педагогической необходимости, механизмов и профессионально-методических основ изучения исполнительства дастана в музыкально-педагогическом образовании. Хотя первые попытки изучения традиций эпического исполнительства в области педагогики были предприняты еще в древности, и по сей день его влияние продолжает ощущаться в общественной жизни.

Kalit soʻzlar: *doston, terma, baxshi, ijrolik, kasbiy, tayyorgarlik, urf-odat, anʼana, qadriyat, marosim, musiqa, aytim, pedagogika.*

Keywords: *epic, terma, bakhshi, performance, professional, preparation, custom, tradition, value, ceremony, music, verse, pedagogy.*

Ключевые слова: *эпос, терма, бахши, исполнение, профессионал, подготовка, обычай, традиция, ценность, обряд, музыка, стих, педагогика.*

Samarqand dostonchilik maktabi – oʻzbek dostonchilik maktabining bir yoʻnalishi boʻlib, mazkur hududda yashayotgan xalqning etnik tarkibi, kelib chiqishi, tarixan qaror topgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sharoitlari ushbu uslubning oʻziga xosligini belgiladi. Oʻzbek aholisining koʻpchilik qismi azaldan yarim koʻchmanchi hayot kechirib, asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan shugʻullanayotganligi sababli aynan, shu jarayonlarga bogʻliq baxshilar tomonidan kuylangan xalq qoʻshiqlari salmoqli oʻrin tutadi. Masalan, Oʻzbekistonning boshqa hududlarida kam uchraydigan baxshilar tomonidan kuylangan “sogʻim qoʻshiqlari” (“Xoʻsh-xoʻsh”, “Turey-turey”, “Churey-churey”) sogʻilayotgan jonivorlarni tinchlantirish, erkalash va ularni iydish maqsadlarida keng qoʻllaniladi. Dehqonchilik bilan bogʻliq baxshilar tomonidan ijro etilgan qoʻshiqlar esa yer haydash (“Qoʻshchi qoʻshigʻi”, “Shox moylash”, “Qoʻsh haydash»), hosilni oʻrish (“Yozi”), xirmonda bugʻdoy yoki arpani yanchish (“Mayda”), bahor kelishi (“Navroʻz” va boshqalar) paytlarda kuylanadi. Ayniqsa, turli yigʻin va toʻylarda baxshilar tomonidan ijro etilayotgan “qarsak” (“beshqarsak”) davra oʻyin qoʻshiqlari mashhur. Anʼanaviy musiqa cholgʻulari esa asosan baxshi choʻponlar ijodiga xos sibizgʻa, gʻajir nay, laparchi ayollar tomonidan keng qoʻllaniladigan changqoʻbiz, baxshilarga joʻr boʻlgan doʻmbira (yaqin oʻtmishda-qoʻbiz) bilan chegaralangan. Musiqa hayotida boshqa hududlardan farqli oʻlaroq baxshi-shoirilar va doʻmbirakash baxshilar asosiy oʻrin tutadi. Doʻmbirada ijro etilayotgan baxshi choʻponlar mehnati bilan bogʻliq cholgʻu kuylar (“Choʻponcha”, “Qoʻylarni sudrash”, “Qoʻylarni yigʻish”, “Choʻponni chaqirish” kabi), doston kuy (“Baxshi kuy”) lar keng tarqalgan. Baxshilar ijodidagi “Alpomish”, “Goʻroʻgʻli” kabi qahramonlik dostonlari hamda turli mavzudagi termalarning ijrosida maxsus «ichki ovoz» uslubi qoʻllaniladi. Samarqand musiqa uslubida dostonchilikning ikki yirik markazi – Bulungʻur dostonchilik maktabi va Nurota dostonchilik maktabi shakllangan. Soʻnggi davrlarda boshqa mahalliy musiqa uslublariga xos musiqiy anʼanalar (masalan, maqom ijrochiligi sanʼati) ham yoyila boshlagan.

Surxon vohasida ajdodlarimizning urf-odatlarini oʻzida saqlab kelayotgan turli millat vakillari istiqomat qiladilar. Vohada yashab kelayotgan turli millatlar yurt ravnaqi, taraqqiyoti uchun bir tanu bir jon boʻlib kurashib kelmoqdalar. Bir ariqdan suv ichib, bir

dalada mol boqib, to'y-hashamlarda, xalq sayillarida, motam marosimlarida yelkama-elka turib, o'zlarining qadimiy va ibratli urf-odatlarini saqlab kelmoqdalar. Vohada yashab kelayotgan turkman xalq og'zaki ijodi haqida shuni aytish mumkinki, doston janri va bu janrni kuylab ijro qiladigan san'at egalari baxshilar ekanligini bilamiz. Shu narsani aytish mumkinki, vohadagi turkman baxshilarning ijro uslublari, ularning kuylayotgan dostonlari o'zgacha uslubda yangraydi, qo'lida dutor (dutar) ushlab kuylaydi va o'ziga xos ijrochilik mahoratiga ega. O'zbek baxshilari do'mbira jo'rligida doston kuylashadi, bu ikki asbobning farqli tomoni shundaki, do'mbirada ovozlarni ajratadigan soz pardalari yo'q, dutorda esa aksincha bu holat mavjud. Vohada turkman baxshilarining bu san'atni egallashida Turkmanistondan mahalliy xalqning to'y - hashamlariga xizmatga kelib- ketib yurgan turkman baxshilarining san'ati maktab vazifasini o'tagan. Bu yerlik mahalliy baxshilar o'zlariga ustoz deb turkmanistonlik Mavlonbaxshi Xudoyqulovni bilishadi. Izlanishlarimiz natijasida shuni bildikki, vohada dostonchilik haqidagi dastlabki ma'lumotlar rus orientalisti Ye. F. Kalning kundalik daftarida qayd etilgan. U 1890 yilda Termiz yaqinidagi Solihobod qishlog'iga kelib to'xtaganida, ayinli urug'idan bo'lgan Omonnazar baxshi unga uch soat to'xtovsiz do'mbira jo'rligida doston kuylab bergan. Ye. F. Kalning kundaliklarini o'rgangan folklorshunos olim X. Zarifov, Omonnazar kuylagan doston "Alpomish" ekanligini aniqlangan.

XX asr 20-yillarida badiiy baxshichilik san'atining zamonaviy uslubida kuylangan nasrchilik rivojlana boshladi. Shoir va yozuvchilardan Yoqub Nosirli, B. Kerboboev, N. Sarixonov, A. Durdiev, X. Deryaev, dramaturglardan A. Karliev, B. Omonov va boshqa adiblar hikoya, qissa, roman va pьesalarida xalq hayoti, quvonch va tashvishlarini haqqoniy tasvirlashga intildilar. 1934 yil Turkmaniston yozuvchilar uyushmasi tashkil etildi. 1928 yildan yozuvchilarning oylik adabiy- badiiy jurnal nashr etila boshladi. Ikkinchi-jahon urushi yillari turkman adiblari bosqinchilarga qarshi xalq nafratini ifodalovchi nazmiy va nasriy asarlar yaratdilar. Jumladan, Yo. Nosirlining «Leytenantning o'limi», P. Nurberdievning «Vatanparvar chol» dostonlari, Q. Seytlievning she'rlari, D. Xoldurdining «Oq xalatlil qiz» dostoni va boshqa asarlarda urush va turkman xalqining front orqasidagi fidoiyligi o'z aksini topgan. Urushdan keyingi turkman adabiyotida tinchlik uchun kurash, odamlar o'rtasidagi munosabat asosiy mavzu bo'ldi. 1950 yillarda A. Otajonov, M. Saidov, K. Qurbonnapasov, A. Xaidov va boshqa adabiyotga kirib keldilar. 1960-1970 yillardan yirik nasriy asarlar adabiyotda yetakchi o'rin egalladi. Qilich Qulievning «Qora karvon», Beki Seytoqovning «Birodarlar», X. Deryaevning «Qismat» romanlari va boshqa yaratiddi. B. Kerboboev, X. Ismoilov, M. Garriev, K. Tangriquliev, A. Boymurodovlar bolalar adabiyotiga qiziqarli asarlari bilan hissa qo'shdilar. XX asrning 2-yarmida baxshichilikning yirik nasriy asarlar adabiyotda yetakchi o'rin egallagan B. Xudoynazarov, A. Qurbonov, O. Oqmamedov, Ya. Mametiev, T. Jumageldiev va boshqa adiblarning romanlari bosilib chiqdi. A. Murodov, U. Abdullaev, J. Allakov, R. Rajabovlar adabiyotshunoslik va adabiy tanqid sohasida barakali ijod qildilar. Boshqa xalqlar adiblari, jumladan, o'zbek yozuvchilarining eng yaxshi asarlarini turkman tiliga tarjima qilishga katta ahamiyat berib kelindi. Musiqasi. 1929 yil Ashxobodda badiiy texnikum musiqa bo'limi bilan birga ochildi (1935 yildan musiqa bilim

yurtiga aylantirilgan). Ilk turkman kompozitorlari A. Quliev, V. Muxatov, D. Ovezovlar yetishib chiqdi. 1929 yil simfonik orkestr, 1934 yil xor, 1941 yil Opera va balet teatri tashkil etildi. 1941-1945 yillarda «Zuxro va Tohir», «Shohsanam va G‘arib» operalari, «Aldar ko‘sa» baleti yaratiddi. Kompozitor A. Shaposhnikov bilan V. Muxatovning «Kamina va qozi» hajviy operasi, M. Ravich bilan N. Muxatovning «Zo‘raki tabib» baleti, A. Quliev, A. Shaposhnikov, V. Ahmedovning orkestr uchun yozgan kontsertlari 1950- 1960- yillardagi turkman musiqasining yutug‘i bo‘ldi. 1970-1980-yillarda turkman musiqasi uslubida yangi siljish sodir bo‘ldi. Kompozitorlardan Ch. Nurimov («Garmselning o‘limi», «Qo‘hitang fojiasi» baletlari, simfonik kontsertlari), N. Xolmamedov (vokal qo‘shiqlari), A. Agajikov («So‘na» va «Tahlikali tun» operalari, «Feruza» baleti), R. Ollayorov (oratoriya va simfoniyalari) yangi ifoda usullaridan foydalandilar. Ch. Ortiqov, D. Nuriev kabi yosh kompozitorlar ijod qila boshladi. Ijrochilar orasida direjor X. Allanurov, xonandalardan A. Annaqulieva, M. Qulieva, M. Shaxberdieva, raqqos va raqqosalardan G. Musaeva, A. Pursiyanovlar mashhur. Ashxobod va Toshhovuzda musiqali drama teatrlari, Ashxobodda Milliy konservatoriya, Ashxobod, Mari va Turkmanobodda musiqa va san‘at bilim yurtlari, turli shaharlarda musiqa maktablari bor .

Xalq og‘zaki ijodini o‘rganishda 1920-1930 yillarda taniqli folklorshunos tadqiqotchilar G‘ozi Yunus, Hodi Zarif, Buyuk Karimiy, Muzayyana Alaviya, Mansur Afzalov (1910–1973) larning xizmatlari biqiyos bo‘lib, ularning shoyista jonbozliklari tufayli milliy madaniyatimizning bebaho xazinasi bo‘lgan xalq dostonlari, termalari va aytishuvlarini yig‘ish, to‘plash, nashr etish imkoniyati yaratildi. O‘zbek folklor yodgorliklarni yig‘ish katta mehnat evaziga yuzaga keldi, chunki xalqimizning o‘tmish turmush tarzi nihoyatda qadimiy bo‘lib, ajdodlarmiz miloddan avvalgi birinchi ming yillikda yuksak madaniyatli, katta irrigatsiya va qurilish inshootlarini yaratgan, ajoyib hunarmandchilik sirlarini bilgan, yuksak ma‘naviy qadriyatlarga ega bo‘lgan xalq sifatida dunyoga tanilgan edi. Xalqimiz tarixini o‘zida mujassam etgan eng qadimgi o‘zbek dostonchiligida katta shuhrat qozongan “Alpomish” dostonning “Qo‘ng‘irot” talqini o‘zbek, qozoq, qoraqalpoq turkiylari xos uslubi, “O‘iz” talqiniga oid ozor, turkman, o‘zbek uslubi, “Dada Qo‘rqut” dostoni va uning tarkibidagi “Bamsi Bayrak” dostoni hamda “Qipchoq” talqiniga oid tatar, boshqird, abxaz uslubi hamda ularga yaqin bo‘lgan “Barchin Suluu” dostonlari alohida ahamiyatga egadir. Turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan tog‘li Oltoyda shakllangan “Alip –Manash” dostoni Oltoy talqiniga oiddir. Xalq og‘zaki ijodida boy ma‘naviy mazmunga ega “Alpomish”, “Алпамыс”, “Alip –Manish”, “Barchin suluu”, “Dada Qo‘rqit” (“Bamsi Bayrak”) kabi dostonlar, ularning qahramonlari, bebaho manbalarni yig‘ish, ilmiy o‘rganish hozirgi kunda dolzarb masalaga aylanib qoldi. Tadqiqotchilarning bevosita xizmatlari tufayli “Alpomish” dostonning to‘ldiruvchi turkumi hisoblangan “Barchin Beka”, “Yodgor”, “Shomurod” dostonlar ham xalqimining or-nomusi, mardligi, jasorati va insonparvarligini tarannum etishga xizmat qilib kelmoqda. “Alpomish” dostonni mukammal o‘rganishga xizmat qilgan Umir Safar o‘g‘lining farzand - shogirdlardan Qora baxshi va Chori baxshilar, Yodgor baxshi, shuningdek, “Alpomish” dostonini to‘liq o‘rganishga Mardonaqul Avliyoqul o‘g‘li, Mamadrayim yuzboshi, Umir Safar o‘g‘li, Bo‘ri Ahmad o‘g‘li, Abdulla Nurali o‘g‘li, Hamro

Ergash o'g'li, Zohir Qo'chqor o'g'li, Qodir Rahim o'g'illarining xizmatlari tahsinga sazovordir. "Alpomish" dostoni xalqimizning sevimli, mazmunli, o'ziga jalb etuvchi, jozibali ohangi bilan ajralib turganligini buyuk dostonchi Qodir Rahim o'g'lining; "Imkon va vaqt, bo'lib ijro etsang, "Alpomish" dostoni 1000 kechalik doston", deb aytgan so'zi haqiqatdir. Shuningdek, Buxoro amiri Nasrullo huzurida asli dehqonobodlik bo'lgan Ernazar Qobon "Alpomish"ni olti oy aytgani, ammo shunda ham tugatmaganini rivoyat qilishadi. Surxondaryo viloyatida mavjud dostonchilik maktablarida biri bo'lgan Kofirun dostonchilik maktabining ustozlari Abdurasul yuzboshi, Sherobod dostonchilik maktabining ustozlari Shernazar Berdinazar o'g'li, Beshqo'ton dostonchilik maktabining ustozlari Alim yuzboshilar o'z uslublari bilan ajralib turgan. Abdurasul yuzboshining shogirdlari Sherdan Mardonaqul o'g'li, Mirza Xo'jamurod o'g'li, Ismoil To'ra o'g'li, Norboy yuzboshi, Ochildi shoir, Hasan Qora o'g'li kabi shogirdlari xalq hurmatiga sazovor bo'ldi. Bu maktabning keyingi avlodlari Ulash G'oziev, Eshmurod Sherdan o'g'li, Ismoil To'ra o'g'li, Toshmurod To'ra o'g'li kabi shogirdlar o'z ijodi hamda doston kuylash mahorati bilan tanilgan. "Alpomish" dostoni nafaqat xalq og'zaki ijodini o'rganish manbai bo'lmasdan, balki tabiiy fanlarni ilmiy o'rganishga ham muhim manba bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Dostonda keltirilgan joy nomlari toponomik, geografik fanlarni rivojiga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Baxshilar tomonidan kuylanib kelayotgan dostonidagi joy nomlaridan Ko'lqamish, Ajdartepe, Beshtepa, Qo'rg'onzo'v, Jiydali ota, Jiydali Boysun, Kattakamar, Tuyakamar, Bujurkamar, Kichkina kamar, Terskay kamar, Tuynik kamar singari joy nomlari, Dastorqoya avliyo, Oqtosh ota qabristoni bilan bog'liq afsona va rivoyatlar hozirgacha xalq dilida saqlanib, ushbu nomlar asrlar osha yashab kelmoqda. Qoraqalpoq, Xorazm, Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro, Samarqand, Farg'ona, Toshkent, Jizzax, Sirdaryo hududlardagi qadimgi obidalaridan topilgan buyumlarda tasvirlangan turli afsonaviy obrazlar o'sha davrda mifologik janrda xalq ijodi namunalari mavjudligidan darak beradi. Sharq xalqlarining klassik durdonasi bo'lmish Firdavsiyning "Shohnoma"sida kuylangan ayrim rivoyatlar ham asli "Avesto"da keltirilgan afsonaviy qiyofalarni eslatadi. Zardushtiylik dinining bu muqaddas kitobidagi ko'pgina mifologik syujetlar xalq og'zaki ijodining mahsuli desak xato bo'lmaydi. Gerodot, Strabon va boshqa qadimgi mualliflar o'z tarix asarlarida ta'riflagan sak-massagetlar, so'g'diy va baqtriylarning boy og'zaki ijodga ega ekanligi haqida ma'lumotlar mavjud. Ayni shu ma'lumotlar jahon adabiyotining ajoyib durdonalaridan biri "Roland haqida qo'shiq" nomli frantsuz eposida tilga olinadi. Adabiyot tanqidchisi V.G.Belinskiy ta'riflaganidek, «xalq poeziyasi uning tarixi bilan uzviy bog'liqdir: poeziyada ham, tarixda ham xalqning sirli ruhiyati mujassamlangan, shu sababli uning tarixini poeziya bilan, poeziyasini esa tarixi bilan tushuntirish mumkin» .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Annakulova D Historical Formation of The Samarkand School of Epistle-Writing and The Place of Bakhshi Performance Traditions <https://www.theusajournals.com/index.php/ijp/article/view/4851>

2. Annakulova D Stages of developing methodological training of future music teachers based on teaching the uzbekistan folk local music styles module <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/5098>
3. Annakulova D Components of using traditions of epistle performance in the professional training of future music teachers <https://manuscriptology.org/index.php/PRVM/article/view/419>
4. Annakulova D Stages of developing methodological training of future music teachers based on teaching the uzbekistan folk local music styles module <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/5098>
5. Annakulova D Stages of developing methodological training of future music teachers based on teaching the uzbekistan folk local music styles module <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/5098>
6. Annakulova D Historical Formation of The Samarkand School of Epistle-Writing and The Place of Bakhshi Performance Traditions <https://www.theusajournals.com/index.php/ijp/article/view/4851>
7. Konurova Leyla Ruslanovna. (2026). MUSICAL AND RHYTHMIC NEUROPRACTICES IN WORKING WITH PRESCHOOL CHILDREN [Data set]. В Latin American Journal of Education (Т. 6, Выпуск 01, сс. 420–425). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.18284426>
8. Konurova Leyla Ruslanovna. (2025). Psychological aspects of developing creative abilities in children through the integration of music therapy and modern pedagogical technologies. European International Journal of Pedagogics, 5(03), 72–75. <https://doi.org/10.55640/eijp-05-03-19>